**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**
**RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI**

**“Tasdiqlayman”**

Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali direktori
_______G.A.Turaxodjaeva
___8___ ___yanvar___2025 y.

**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

**“Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya”**
**malaka oshirish sikli**
# ISHCHI O‘QUV DASTURI
(o‘qish hajmi – 144 kredit)

**Andijon – 2025 yil**

| | |
|---|---|
| **TUZUVChILAR:** | |
| **M.Matmusaeva** | Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi |
| **D.M.Gapparova** | Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali uslubchisi. |
| **TAQRIZChILAR:** | |
| **X.Ibrohimov** | VBKTTB Bosh shifokor o'rinbosari |
| **S.Vakkasova** | VBKTTB Fizioterapiya bo'limi boshlig'i |

Ishchi o'quv dastur Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

"_7_" _01_ 2025 yil bayonnoma № _1_

Uslubiy kengash raisi D.M.Gapparova

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

«_8_» _01_ 2025 yil. bayonnoma № _2_

Pedagogik kengash raisi G.A.Turaxodjaeva

# 1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Soglikni saklash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me’yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i hamda ,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni ijrosini ta’minlash doirasida modul tizimi asosida ishlab chiqilgan dasturdir.

Ishchi dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Ishchi dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e’tiborga olingan.

“Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya” ishchi o‘quv dasturi yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. Dastur fanlar bloklariga ajratilgan bo‘lib: kasbiy rivojlanish moduli ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy talimning uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan. Dastur kredit/modul metodologiyasi bo‘yicha va ilg‘or xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda, dalillarga asoslangan tibbiyot masalalarini o‘z ichiga olgan. Dasturda davolash profilaktika muassasalari, sport va jismoniy tarbiya muassasalari, davolovchi jismoniy tarbiya va reabilitatsiya bo‘limlari hamshiralarini malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq,lozim bo‘lgan yangi bilim va ko‘nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi lozim) yetarli darajada o‘zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

## 1.1. Maqsad:

Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchi insonlarni va sportchilar sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash, kasallik va patologik holatlarni davolash va profilaktikasi, sport va JT usul, omillarini ratsional qo‘llashga

yondashish, ish qobiliyatini va zo‘riqishdan keyingi jarayonni tiklash, malakali tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligi ko‘tarish, aholi o‘rtasida salomatlik ko‘rsatkichlarini yanada oshirish, faollikni uzaytirish, hisoblanadi, hamshiralarning mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish.

**1.2. Vazifalar:**

- umumiy malaka oshirish o‘quv jarayonini modulli tibbiy ta’lim tamoyili bo‘yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan davlat talablariga mos holda tuzilgan o‘quv dasturi bo‘yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko‘rsatiladigan profilaktik, tashxislash va parvarishlash uchun kerakli amaliy ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llashga tayyorgarlikni shakllantirish.
- amaliyotda sog‘liqni saqlash bo‘yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni ish faoliyatida qo‘llay bilishni o‘rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Sog‘liqni saqlash tizimidagi asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni xamshiralarni ish faoliyatida qo‘llay bilishni o‘rgatish;
- sportchilarni va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarni dispanser kuzatib turish (kuzatish, kasallikni aniqlab davolash va oldini olish) sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish;
- o‘quv -mashq darslarini shifokor-pedagog bilan birga nazorat qilish,sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish sharoitlari ustidan doimiy sanitariya nazoratini o‘tkazib borish;
- mashg‘ulotlarda va musobaqalarda yuz beradigan sport jarohatlarining oldini olish;
- aholining jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishini targ‘ibot qilish;
- jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni doimo tibbiy tekshiruvlardan o‘tkazib, saralash va nazorat qilish;
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda davolash, inson xayotiga xavf soluvchi holatlarni kamaytirish;
- tibbiy yordam ko‘rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo‘llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to‘g‘risida ma’lumot olish;
- aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o‘rgatish;
- jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchi insonlarni va sportchilar sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash, kasallik va patologik holatlarni davolash va profilaktikasi;
- sport va JT usul va omillarini ratsional qo‘llashga yondashish, ish qobiliyatini va zo‘riqishdan keyingi jarayonni tiklash;
- malakali tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligi ko‘tarish,;
- aholi o‘rtasida salomatlik ko‘rsatkichlarini yanada oshirish, faollikni uzaytirish;

- bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini mukammallashtirish;
- sport tibbiyoti hamshiralarini ishda har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish;
- malakali tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligini ko‘tarish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

**1.3. Ta’lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O‘quv dastur bo‘yicha davolash profilaktika muassasalari, sport va jismoniy tarbiya muassasalari, davolovchi jismoniy tarbiya va reabilitatsiya bo‘limlari hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq, ya’ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi xujjati* bo‘lgan hamshiralar uchun mo‘ljallangan.

**1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo‘llay oladigan, shaxslararo muloqot ko‘nikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo‘lishi;
- sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchi aholi bilan ishlashda tibbiy hujjatlarini yuritish,
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini o‘rganish.
- tibbiy reabilitatsiya bosqichlarini. Tibbiy reabilitatsiya yo‘nalishlarini.
- reabilitatsiya bo‘limlaridagi bemorlarni parvarish qilish, reabilitatsiya dasturlarni olib borish, kerakli muolajalarni o‘tkazish;
- tabiiy omillardan foydalanish.
- tibbiy, jismoniy reabilitatsiya jihatlarni bilish.
- reabilitatsiya usullarni ketma ketligi va bosqichlarni bilish, unda olib boriladigan tadbirlarni o‘tkazish;
- tez yordam ko‘rsatish, musobaqalarda tibbiy kuzatuvni bilish, manipulyatsiyalarni bilish;
- jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘takzish, fiziologik o‘zarishlarni bilish, funksional sinamalarni o‘tkazish, antropometrik o‘lchovlarni olish;
- mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va yangilangan to‘liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan, uzluksiz o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olish va o‘z ishini tahlil qilishi;

**1.5. Dasturning dolzarbligi:**

O‘quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy parvarish va profilaktika choralarini qo‘llash, xamda O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi olimpiya zaxiralari kollejlari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, shuningdek, bolalar o‘smirlar sport maktablari, ixtisoslashtirilgan bolalar o‘smirlar sport maktablari, Respublika ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar o‘smirlar sport maktablari, barcha turdagi Oliy sport maxorati maktablarida,sport tayyorgarligidan o‘tayotgan

sportchilarning salomatligini muhofaza kilish va mustaxkamlash, kasalliklarni oldini olish, koʻrsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya va profilaktik yordamning sifati va samaradorligini oshirish xamda ushbu muassasalarda yuritiladigan tibbiy xisob xujjatlarni tasdiklash maksadida oʻquv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standartlar va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat oʻzgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan

**1.6. Dastur hajmi:** 144 kredit (kuniga 6 soat haftada, 36 kredit).

**1.7. Oʻqish shakli:**

- kunduzgi - oʻqish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - an’anaviy oʻqish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashgʻulotlarni oʻtish tartibi:**

Mashgʻulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish toʻgʻrisidagi” Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugʻi va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashgʻulotlar 8:30 da boshlanib, $13^{10}$ da tamom boʻladi.Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9.Malaka oshirishdan soʻng:**oʻquv kursni toʻliq oʻzlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga“Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya ” boʻyicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## 2. REJALAShTIRILAYoTGAN TA’LIM NATIJALARI

**2.1. Rejalashtirilayotgan ta’lim natijalaridan soʻng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim boʻlgan kasbiy kompetensiyalar:**

- oʻrta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- oʻz-oʻzini baholash, tanqidiy tahlil qilish va toʻgʻri qarorlarni qabul qilish,ona - bolalar sogʻligʻini saqlash va mustahkamlash doirasida,aholi orasida tibbiy madaniyat, sogʻlom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targʻibot tadbirlarni olib borish, sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- intizomiy, ma’muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish boʻyicha oʻz faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;

- bemorlarni tashxislashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma’lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi; kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsientlar va ularning yaqinlari bilan to‘g‘ri muloqot qilish;
- axoli sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish;
- to‘g‘ri ovqatlanishni targ‘ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish;
- aholi salomatligini mustahkamlash, sog‘lomlashtirish, davolashda profilaktikasi asoslarini;
- jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni doimo tibbiy tekshiruvlardan o‘tkazib, saralash va nazorat qilish;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish;
- reabilitatsiya davomida bemorlarni ahvolini baholash.
- reabilitatsiyaga tegishli me’yoriy hujjatlarni yuritish.
- hamshiralik parvarishini olib borish;
- sportchilarning ish qobiliyatini oshirish, tiklanish jarayonlarini tibbiy-biologik vosita va usullar bilan kuchaytirish;
- sportchilarning salomatlik holatini, jismoniy rivojlanganlikni va ichki a’zolarning funksional holatini aniqlash;
- trenirovka mashg‘ulotlari va musobaqalar jarayonida tibbiy nazoratni olib borish;.
- shug‘ullanuvchining organizmiga jismoniy yuklamaning ta’sirini kuzatish va o‘rganish; funksional tekshirish, diagnostika va davolash usullarini ishlab chiqish;
- jismoniy yuklamalardan noratsional foydalanilganda kelib chiqadigan asoratlarning oldini olish;
- shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o‘rnatilgan tartibda hujjatlashtirish ko‘nikmalarini mustahkamlash;

**3.1. “Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya ” malaka oshirish kursi ishchi o‘quv rejasi**

| № | Modul va mavzular nomi | Kredit | Auditoriya mashg‘ulotlari | | Seminar | Attestatsiya |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Nazariy mashg‘ulot | Amaliy mashg‘ulot | | |
| 1.0 | **Kasbiy rivojlantirish moduli** | **32** | **18** | **14** | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1.1 | **Modul:O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati** | 4 | 4 | - | | |
| 1.1.1 | 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish konsepsiyasining maqsadlari vazifalari va asosiy yo'nalishlari. | | 2 | | | |
| 1.1.2 | Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishning huquqiy asoslari. | | 2 | | | |
| 1.2 | **Modul:Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari** | 6 | 2 | 4 | | |
| 1.2.1 | Zamonaviy axborot texnologiyalarining kommunikatsion texnologiyalari | | 2 | | | |
| 1.2.2 | Ofis dasturlari bilan tanishishva sohaga oid hujjatlar tayyorlash. | | | 2 | | |
| 1.2.3 | Internet tarmog'ida ishlash,axborot qidirish ma'lumotlar bazasidan foydalanish. | | | 2 | | |
| 1.3 | **Modul:Sanitariya epidemiologik tartib me'yorlari va infeksion nazorat** | 6 | 4 | 2 | | |
| 1.3.1 | Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar va infeksion nazorat. | | 2 | | | |
| 1.3.2 | Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi. OIV/OITS xaqida tushuncha. | | 2 | | | |
| 1.3.3 | DPM larda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. | | | 2 | | |
| 1.4 | **Modul:O'rta tibbiyot xodimining shaxslararo kommunikativ munosabati** | **6** | **4** | **2** | | |
| 1.4.1. | O'rta tibbiyot xodimlarini shaxslararo muloqat ko'nikmalari. Etika va deontologiya | | 2 | | | |
| 1.4.2. | Samarali muloqat ko'nikmalari | | 2 | | | |
| 1.4.3. | Hozirgi zamon tibbiyotida yatrogeniya muammolari va ularning yechimi | | | 2 | | |
| 1.5 | **Modul:Sog'lom turmush asoslari,to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik** | 10 | 4 | 6 | | |
| 1.5.1 | Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasiko'rsatkichlari | | 2 | | | |
| | Salomatlik indeksini baholash. | | | 2 | | |
| 1.5.2 | Sog'lom turmush tarzi yo'nalishlari.To'g'ri ovqatlanish mezonlari. | | 2 | - | | |
| 1.5.3 | Jismoniy faollik.Asosiy sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar. | | - | 2 | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1.5.4 | Jismoniy mashqlarni turli yoshdagi sog‘lom odamlarda hamda bemorlarda qo‘llash metodikasi. | | - | 2 | | |
| **2.0** | **Mutaxassislik fanlar moduli** | **104** | **44** | **60** | | |
| 2.1 | **Modul**:**Sport tibbiyoti fani. Sport tibbiyotining tashkil qilinishi va rivojlanish tarixi. Me’yoriy hujjatlar bilan ishlash.** | **6** | **4** | **2** | | |
| 2.1.1 | Sport tibbiyoti fani, unitashkil qilinishi va rivojlanish tarixi. | | 2 | | | |
| 2.1.2 | Sport tibbiyotining asosiy maqsad va vazifalari.Sport tibbiyotida tibbiyot hamshiralarining vazifalari. | | 2 | | | |
| 2.1.3 | Me’yoriy hujjatlar bilan ishlash. | | | 2 | | |
| 2.2 | **Modul:Sport fiziologiyasi. Bolalar va o‘smirlarda jismoniy rivojlanishni aniqlash. Bolalar sport tibbiyotining asoslari.** | **18** | **6** | **12** | | |
| 2.2.1 | Sport fiziologiyasi. Bolalar sport tibbiyotining asoslari. | | 2 | | | |
| 2.2.2 | Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar va sportchilarning tibbiy tekshiruvi,ularga qo‘yilgan talablar. | | | 2 | | |
| 2.2.3 | Tibbiy ko‘rik turlari. Tibbiy tekshiruvlarni o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.2.4 | Jismoniy rivojlanganlik tushunchasi. Jismoniy rivojlanganlikni aniqlash va baholash usullari. | | 2 | | | |
| 2.2.5 | Jismoniy rivojlanganligini aniqlash usullarini o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.2.6 | Jismoniy rivojlanganlikni baholash usullarini o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.2.7 | Jismoniy tarbiya mashg‘uloti va sport bilanshug‘ulanishga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar. | | 2 | | | |
| 2.2.8 | Jismoniy tarbiya mashg‘uloti va sport bilan shug‘ulanish vaqtida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. | | | 2 | | |
| 2.2.9 | Davolovchi gimnastika muolajasini o‘tkazishga nisbiy va absolyut qarshi ko‘rsatmalarlarni aniqlash. | | | 2 | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2.3 | **Modul:Sport tibbiyotida funksional sinamalar. Organizm asosiy tizimlarini funksional xolatlarini baholash.** | **12** | **4** | **8** | | |
| 2.3.1 | Funksional holat.Funksional yuklamalarni yashirin patologiyalarni aniqlashdagi tutgan o‘rni. | | **2** | | | |
| 2.3.2 | Shug‘ullanuvchini funksional holatiga shug‘ullanish yuklamasini mos kelishini baholash usullarini o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.3.3 | Shug‘ullanuvchi funksional holatiga shug‘ullanish yuklamasini mos kelishi uchun tavsiyalar berish. | | | 2 | | |
| 2.3.4 | Nafas, vegetativ nerv sistemasi, yurak -qon tomir tizimlarni funksional holatini baholashda qo‘llaniladigan sinamalar. | | 2 | | | |
| 2.3.5 | Shtange va Genchi, Rozental, ortoklinostatik, klinoortostatik sinimalarni qo‘llash. | | | 2 | | |
| 2.3.6 | Martine sinamasini o‘tkazish.Mashg‘ulot zichligini aniqlash. | | | 2 | | |
| 2.4 | **Modul:Turli kasalliklarni profilaktikasida sport va jismoniy tarbiyani o‘rni.Davolovchi jismoniy tarbiyani umumiyprinsiplari.** | **30** | **10** | **20** | | |
| 2.4.1 | Kattalar va bolalarda davolovchi badantarbiya mashqlarining turlari va vositalari. Umumiy va xususiy badantarbiya usullarining asoslari. | | 2 | | | |
| 2.4.2 | Kattalar va bolalarda davolovchi badantarbiya mashqlarini o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.4.3 | Kattalar va bolalarda davolovchi badantarbiya mashqlarini vositalarini qo‘llash. | | | 2 | | |
| 2.4.4 | Kattalar va bolalarda nafas olish tizimi a’zolarining kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiya mashqlari. | | 2 | | | |
| 2.4.5 | Kattalar va bolalar yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiya dasturini tuzish va o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.4.6 | Kattalar va bolalar nafas olish tizimi a’zolarining kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiyadasturini tuzish va o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.4.7 | Kattalar va bolalarda ovqat hazm qilish,moddalar almashinuvining buzilishidan keyin kelib chiqadigan, buyrak va siydik yo‘llari kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiya. | | 2 | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2.4.8 | Buyrak va siydik yo‘llari kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiyadasturini tuzish va o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.4.9 | Ovqat hazm qilish,moddalar almashinuvining kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiya dasturini tuzish va o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.4.10 | Kattalar va bolalarda bo‘g‘im kasalliklari, ortopediya va travmatologiya, asab tizimi kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiya. | | 2 | | | |
| 2.4.11 | Kattalar va bolalar bo‘g‘im kasalliklari, ortopediya va travmatologiya kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiya dasturini tuzish va qo‘llash. | | | 2 | | |
| 2.4.12 | Kattalar va bolalarda asab tizimi kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiya dasturini tuzish va qo‘llash. | | | 2 | | |
| 2.4.13 | Akusherlik va ginekologik kasalliklarida shifobaxsh jismoniy tarbiya. | | 2 | | | |
| 2.4.14 | Homiladorlik davrida shifobaxsh jismoniy tarbiya mashqlarini o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.4.15 | Kichik chanoq a’zolari kasalliklari uchun individual dastur tuzish va qo‘llash. | | | 2 | | |
| 2.5 | **Modul**:**Sportchilar ish qobiliyatini oshirishda qo‘llaniladigan tiklash vositalari. Mashq qilish mashg‘ulotlari va musobaqalar jarayonida tibbiy nazorat.** | **12** | **6** | **6** | | |
| 2.5.1 | Sportchilar ish qobilyatini oshirishda qo‘llaniladigan tiklash vositalari. | | 2 | | | |
| 2.5.2 | Mashq qilish mashg‘ulotlari va musobaqalar jarayonida tibbiy nazoratni o‘tkazish. | | | 2 | | |
| 2.5.3 | Jismoniy zo‘riqish oqibatida yuzaga keladigan charchash turlari va ularni bartaraf qilish usullari. | | | 2 | | |
| 2.5.4 | Surunkali jismoniy zo‘riqish oqibatida yuzaga keladigan patologiya oldi holatlari va patologik o‘zgarishlar. | | 2 | | | |
| 2.5.5 | Dopingga qarshi nazorat va uni tashkil qilish. | | 2 | | | |
| 2.5.6 | Sportchilar organizmining normal va patologik davrlarida yurak qon - tomir va boshqa tizimlarning xolatini baholash. | | | 2 | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **2.6** | **Modul:Sportchilarda eng ko‘p uchraydigan patologik xolatlarni oldini olish.Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.** | **20** | **10** | **10** | | |
| 2.6.1 | Jismoniy yuklamalardan noratsional foydalanganda sport turlariga xos ravishda yuzaga keladigan patologik holatlar va jarohatlar. | | 2 | | | |
| 2.6.2 | Jismoniy yuklamalardan noratsional foydalanganda sport turlariga xos ravishda yuzaga keladigan patologik holatlarni aniqlash. | | | 2 | | |
| 2.6.3 | Jismoniy yuklamalardan noratsional foydalanganda sport turlariga xos ravishda yuzaga keladigan jarohatlarni aniqlash. | | | 2 | | |
| 2.6.4 | Sport bilan shug‘ullanuvchilarda ko‘p uchraydigan patologik holatlar. | | 2 | | | |
| 2.6.5 | Sport bilan shug‘ullanuvchilarda ko‘p uchraydigan patologik holatlarni oldini olish. | | | 2 | | |
| 2.6.6 | Sport bilan shug‘ullanuvchilarda ko‘p uchraydigan patologik holatlarni davolash usullarini qo‘llash. | | | 2 | | |
| 2.6.7 | Sog‘lom turmush tarzining asosiy mazmuni. | | 2 | | | |
| 2.6.8 | Sog‘lom turmush tarzi asosiy prinsiplari | | 2 | | | |
| 2.6.9 | Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishda sport inshoatlariga qo‘yilgan gigienik talablar. | | | 2 | | |
| 2.6.10 | Jismoniy tarbiya va sportning sog‘lom turmush tarzini mustahkamlashda o‘rni. | | 2 | | | |
| **2.7** | **Modul**:**Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.** | **6** | **4** | **2** | | |
| 2.7.1 | Favqulodda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, Tibbiy saralash bosqichlari**.** | | 2 | | | |
| 2.7.2 | Ommaviy talofat o‘chog‘ida jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish va birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatish tamoyillari**.** | | 2 | | | |
| 2.7.3 | Terminal holatlarda birinchi yorda ko‘rsatish.Yurak-o‘pka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmi . | | | 2 | | |
| 3.0 | **Tanlov fanlar moduli** | **4** | **-** | | **4** | |
| 3.1 | Koronavirus infeksiyasining oldini olish chora –tadbirlari. | | | | 4 | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | **Attestatsiya** | **4** | | | | **4** |
| | **Jami:** | **144** | **62** | **74** | **4** | 4 |

**“Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya ” malaka oshirish kursi ishchi dastur o‘quv modullarining mazmuni**

**1.1Modul:O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.**

| **O‘quv moduliga ajratilgan kredit:** | **4 kredit** |
|---|---|
| **O‘quv moduli mazmuni:** | O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlari.Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘likni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi va vazifalari. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar. Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun,mohiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmining xuquqiy asoslari.Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. |
| **O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:** | • O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot soxasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini;<br>• Respublikamizdagi milliy dasturlarning asosiyyo‘nalishlarini;<br>• siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ayniqsa, tibbiyotga tegishli bo‘lgan Prezident farmonlarini;<br>• 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsad va vazifalarini;<br>• davlat-xususiy sherikliklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni;<br>• onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha vazifalarini; |

| | |
|---|---|
| | • insoniy fazilatlarni shakllantirib borishi va jamoada vijdonan oʻz vazifalarini bajarish masʼuliyatini his etish;<br>• Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni;<br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonunining mazmun-mohiyatini. |
| **Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:** | • tibbiyotga tegishli boʻlgan Prezident farmonlarini amaliyotga tadbiq etish boʻyicha yoʻl xaritalari tuzish;<br>• jamoada vijdonan oʻz vazifalarini bajarish masʼuliyatini his etish masʼuliyatiga ega boʻlish;<br>• SSVning qarorlari va buyruqlarini joylarda bajarilishini taʼminlash;<br>• milliy qadriyatlarimizni kelajak avlodga yetkazishni taʼminlash. |

**Adabiyotlar:**


1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent 2016 y.
2.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 7-dekabrdagi 2019- 2025 yillarda Oʻzbekiston Respublikasining Sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi toʻgʻrisidagi farmoni.
4.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyovning 2020-yil 12-noyabrdagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sogʻliqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora –tadbirlari tugʻrisidagi farmoni.
5.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi Sogʻliqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora- tadbirlari toʻgʻrisidagi qarori.
6.Oʻzbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga karshi kurashish tugʻrisida”gi qonuni. 2017 yil 3-yanvar


**Elektron taʼlim resurslari**

-www. minzdrav.uz–
www.gov.uz
www.press-service.uz
www.parlament.gov.uz
- www.uza.uz
- www.cbu.uz-

| |
|---|
| - www.lex.uz<br>- www.ziyonet.uz |

**1.2 Modul. Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari.**

| **O‘quv moduliga ajratilgan kredit:** | **6 kredit** |
|---|---|
| **O‘quv moduli mazmuni:** | Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlar. Tibbiyotda qo‘llanilayotgan fizik va matematik modellar to‘g‘risidagi zamonaviy nazariy bilimlar. Tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo‘llash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma’lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish. |
| **O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:** | • Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini;<br>• kompyuterni tuzilishi to‘g‘risida qisqacha ma’lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni;<br>• tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni;<br>• sog‘lom jamiyat qurishda axborotlashtirishning o‘rnini;<br>• sog‘liqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini;<br>• axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini;<br>• tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalarini;<br>ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish;<br>• hozirgi kunda tibbiyotda informatsion texnologiyalari sohasi rivojlanib kelmoqda- tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, *online*- registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi. |
| **O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:** | • kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika havfsizligini;<br>• dasturlar bilan ishlashni;<br>• ma’lumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini;<br>• kompyuter grafik usullaridan foydalana olishni;<br>• tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmog‘ida ishlashni;<br>• elektron pochta dasturi bilan ishlashni; |

| | |
|---|---|
| | • AKT sog‘liqni saqlash tizimida qo‘llashni. |

**Adabiyotlar:**

1. A.A.Abduqodirov, A.G.Xayitov «Axborot texnologiyalari», Toshkent "O‘qituvchi ta'minoti", Toshkent Mehnat -2000 yil.
2. A.Axmedov, N.Taylaqov "Informatika", Toshkent, O‘zbekiston -2002y.
3. A.Sattorov "Informatika va axborot texnologiyalari" Toshkent, O‘qituvchi-2003
4.T.Xolmatov, N. Taylaqov "Amaliy matematika, dasturlash va kompyuterning dasturiy
5. Sheraliev F.A. "Informatika va axborot texnologiyalari" Termiz-2010.

**Elektron ta'lim resurslari**

http://www.edu.uz
http://www.pedagog.uz
www.tma.uz,
www.lex.uz
https://ru.pinterest.com/vkhamidov/

**1.3 Modul: Sanitariya epidemiologik tartib me'yorlari va infeksion nazorat.**

| | |
|---|---|
| **O‘quv moduliga ajratilgan kredit:** | **6 kredit** |
| **O‘quv moduli mazmuni:** | Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherkalarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish.Yuqumli kasalliklar (o‘ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSga oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalanish tamoyillari.Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi. |
| **O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:** | • sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (SanQvaN);<br>• davolash-profilaktika muassasalariga qo‘yiladigan sanitar talablarni va "infeksion nazorat komissiyasi" ish faoliyatini;<br>• sanitar me'yor va qoidalar bo‘yicha amaldagi hujjatlarni;<br>• OIV/OITSga oid normativ hujjatlarni;<br>• OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasini;<br>• OIV yuqish yo‘llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini;<br>• kasalliklardan (COVID -19) himoyalanish tamoyillarini. |

| | |
|---|---|
| **O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:** | • shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda SanQvaMlarga rioya qilishni;<br>• muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni;<br>• avariya holatlari yuzaga kelganda o‘tkaziladigan chora-chadbirlar yig‘indisini;<br>• o‘ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o‘tkaziladigan chora-tadbirlarni;<br>• himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini.<br>• qo‘llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo‘llarni yuvish tartibini; |
| **Adabiyotlar**<br>1. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 y.<br>2. “Mejdunarodnые mediko-sanitarnые pravila (2005) vtoroe izdanie VOZ<br>3.“Ebola isitmasi”. H.B.Saparov. B.O‘.Rovshanov. Toshkent -2014 y.<br>4.“Infeksionnые bolezni s kursom VICh infeksii i epidemiologii”<br>A.K. Belousova. V.N.Dunayseva. Feniks – 2007 y.<br>5.“VICh – infeksiya”. Pod redaksiey AN RUzDaminova.T.ATashkent-2010 g.<br>6.COVID-19 bo‘yicha milliy qo‘llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart.<br>**Elektron ta’lim resurslari**<br>http://www.edu.uz<br>http://www.pedagog.uz<br>www.tma.uz,<br>www.lex.uzhttps://ru.pinterest.com/vkhamidov/ | |

**1.4 Modul : Hamshiraning shaxslararo kommunikativ munosabatlari.**

| **O‘quv moduliga ajratilgan kredit:** | **6 kredit** |
|---|---|
| **O‘quv moduli mazmuni:** | Jamiyat va bemorning salomatligi yo‘lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko‘rsatish. Bemorga diqqat e’tibor va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish va o‘zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioyaqilish.Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati.Kasbning oliyjanob an’analarini saqlash.<br>Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish.Hamjihatlik va kollegiallik tuyg‘ulariga rioya qilish. |
| **O‘quv moduli yakunida tinglovchi** | • Insoniylik tamoyillariga, kasbiy standartlarga va tibbiyot ilmining zamonaviy talablariga javob beradigan sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish tamoyillarini; |

| | |
|---|---|
| **bilishi lozim:** | • klinik amaliyotda dalillarga asoslangan parvarish tamoyillarini;<br>• tibbiyot xodimining asosiy huquq,burch va majburiyatlarini;<br>• bemorning ehtiyojlariga nisbatan sabrli va xushmuomalali bo‘lishi, bemor bilan o‘zaro sokin va ishonchli munosabat o‘rnatishni;<br>• bemorga diqqat e’tibor va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish va o‘zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilishni;<br>• jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyatini;<br>• ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilishni. |
| **O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:** | • Hamshira subordinatsiyaga rioya qilishni;<br>• bemorlar va ularga tegishli ma’lumotlarning maxfiyligiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini;<br>• bemorning shaxsiy hududiga kirishni minimallashtiradigan hamshiralik amaliyoti standartlariga amal qilishni;<br>• bemor, shaxslararo o‘zaro muloqot qilish ko‘nikmalarini;<br>• bemorning ehtiyojlarini hisobga olib, o‘zaro sokin va ishonchli munosabat o‘rnatish usullarini. |
| **Adabiyotlar:**<br>1.Yunusjonova. Z.S.Mirzaeva S.A.”Psixologik parvarish”Toshkent.2014y.<br>2.Shukurov. H.I.Qanoatov. S.Q. “Jamoada hamshiralik ishi”Toshkent. 2013y.<br>3.Zokirova. K.O‘.To‘xtamatova. D.O‘. Mirzaeva. S.A ”Hamshiralik ishi asoslari”. 2013 y.<br>4.Tolkacheva. O.V.Zinkovskaya. I.V.”Osnovы sestriskogo dela” Toshkent. 2012g.<br>**Elektron ta’lim resurslari**<br>http://www.edu.uz<br>http://www.pedagog.uz<br>www.tma.uz,<br>www.lex.uz | |

## 1.5 Modul. Sog‘lom turmush asoslari, to‘g‘ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik

| **O‘quv moduliga ajratilgan kredit:** | **10 kredit** |
|---|---|
| **O‘quv moduli mazmuni:** | Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka |

| | |
|---|---|
| | ta'siri, to'g'ri<br>ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish. |
